

Ona yurtning - oltin beshiging

TONG yulduzi

№ 28-29
(66465-66)


2004 yil
12 iyul - 25 iyul

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqqan
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.



Men kelajakda
jurnalist bo'lishni
orzulayman. Buning uchun
ko'proq o'qishim, puxta
bilim olishim lozimligini
yaxshi bilaman. Shu
maqsadda «Yangi avlod»
klubiga a'zo bo'ldim.

Yaqinda klubimiz a'zolari
bilan Toshkent viloyati, O'rta

Beshdanak qishlog'iga
yetib keldik. U yerda Shohida,
Kamola, Dilfuza ismli
tengdoshlarimiz
bilan tanishib
oldik. Birinchi olgan
lavhamiz texnik kamchiliklar
tufayli yaxshi chiqmadi. Biz
shuncha qilgan mehnatimizga
achinib, yig'lab

yurdik.

Nihoyat qishlog'iga
yetib keldik. U yerda Shohida,
Kamola, Dilfuza ismli
tengdoshlarimiz
bilan tanishib
oldik. Birinchi olgan
lavhamiz texnik kamchiliklar
tufayli yaxshi chiqmadi. Biz
shuncha qilgan mehnatimizga
achinib, yig'lab

o'tayotgan ekan. Ularga biror
hunar o'rgatadigan, bo'sh
vaqtlarini maroqli
o'tkazadigan to'garaklarning
o'zi yo'qligi, borlari ham juda
olisda ekanligi haqida gapirib
berishdi. Bir
so'z bilan
aytganda, bu
qishloqda bolalar uchun hech
qanday sharoit yaratilmagan
ekan. Ular tahsil oladigan
maktabda «Kamolot»
tashkiloti yo'qligi,

Yoz - o'tmoqda soz!

MENING BIRINCHI LAVHAM

Chirchiq tumanidagi
«Mehrjon» oromgohida
bo'lib qaytdik. Ustozlarimiz
Sunnatilla aka, Ulug'bek aka,
Dilfuza hamda Umida
opalardan kasb mahoratiga
oid ko'p narsalarni o'rganib
oldik. Haqiqiy jurnalistlardek
o'zimiz mustaqil lavha
tayyorlashga urindik.
«Media», «Buratino»,
«Original news», «Internet»
guruhlariga bo'linib, ish olib
bordik. Biz - Shahnoza,
Nurilla, Boburlar «Internet»
guruhiga birlashdik.
Qishloqdagi tengdoshlarimiz
hayotidan lavha tayyorlashga
ahd qilib yo'lga tushdik. Yo'l
yurdik, yo'l yursak ham mo'l

yubordik.
Shunda ustozlarimiz Sunnatilla
aka, Ulug'bek akalar,
yig'loqilik - bu mag'lubiyat
degani, hali vaqt bor, yana bir
urinib ko'ringlar, deya tasalli
berishdi. Ikkinchi bor urinib,
olgan lavhamiz hammaga
manzur bo'ldi. Afsuski, gazeta
orqali olgan lavhamizni
ko'rsatishning imkoni yo'q.
Shuning uchun sizlarga uning
mazmunini so'zlab bera qolay.
To'g'risi, suhbat qurgan
tengdoshlarimizning so'zlari
bizni biroz ranjitdi. Ularning
aytishlaricha, ta'til kunlarining
asosiy qismi dalada ishlash,
olisdan suv tashib kelish bilan

bunday tashkilot haqida hech
bir tasavvurga ega
emasliklarini eshitib, yanada
ko'proq ranjidik...

Olgan lavhamiz
ustozlarimizga ma'qul bo'ldi
va bizga guvohnomalar
topshirishdi. Lavha olishni,
montaj qilishni, dastur
tayyorlashni o'rganib
olganimizdan juda xursand
edik. Qishloqdagi
tengdoshlarimiz hayotidan
esa rosti ranjidik.
«Mehrjon»dan ana shunday
yaxshi-yomon taassurotlar
bilan qaytdik.

Malohat TO'XTAYEVA,
«Yangi avlod» klubi a'zosi.

RUSTAMI

DOSTON

Kuni-kecha yurtimiz
bo'ylab ajoyib xushxabar
tarqaldi. Hamyurtimiz 24
yoshli grossmeyster Rustam
Qosimjonov Liviya poytaxti
Tripolida bo'lib o'tgan Jahon
chempionati bahslarida qatnashib,
jahon chempioni bo'ldi.

Jahonning 128 nafar «mana-
man» degan kuchli
grossmeysterlari orasida Rustam akamiz o'z iqtidorini to'laqonli
namoyon etoldi. Bu olamshumul g'alaba tinimsiz mashqlar,
izlanishlar samarasi ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Yana,
yurtboshimizning otalarcha g'amxo'rliklari, hamyurtlarimiz
ishonchi ham ulardagi g'alabaga bo'lgan ishtiyoqni oshirganiga
aminmiz. Nafaqat yurtimiz, balki jahon shaxmati tarixida ham
yangi sahifa ochgan Rustam aka Qosimjonov bilan harqancha
faxrlansak arziydi. Axir dunyoga tanilgan Ivanchuk, Grishchuk,
Topalov kabi qudratli shaxmatchilar

ustidan g'alaba qozonishning o'zi
bo'ladimi, axir?! Ayniqsa, finalga
yetib kelgan hamyurtimizning yana bir dongdor grossmeyster
Maykl Adams bilan o'tkazgan bahsini dunyo shaxmat
shinavandilari zo'r hayajon bilan kuzatdilar. Nihoyat, bor mahorati,
bilimi va tajribasini ishga solgan Rustam Qosimjonovga omad
kulib boqdi. U O'zbekistonimiz g'ururi va faxriga aylandi. Jahon
chempioni unvonidan tashqari pul mukofoti, hamda Garri
Kasparov bilan bellashish huquqi ham berildi. Bundan tashqari,
grossmeysterimiz Liviya Prezidenti Muammar Qodafiyning Oltin
kubogiga ham sazovor bo'ldi.

Yurtboshimiz Farmoniga binoan, Rustam akamizning
yurtimiz shuhratini dunyoga tarannum etishga qo'shgan ulkan
hissasi uchun Amir Temur ordeni bilan mukofotlanganligi
nafaqat kattalarni, balki bizni ham juda quvontirdi. Mittigina
qalbimiz faxr va iftixor tuyg'ulariga to'ldi. Qaniydi, ulardek
irodali, sabr-bardoshli, aql-idrokli inson bo'lolsak.

Xurshida BOYMIRZAYEVA,
Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi
248- maktabning 11- sinf o'quvchisi.

BIZNING QAYERIMIZ KAM?

Assalomu alaykum qadri bilan ishlaydigan biror uyushma
«Tong yulduzi». Ushbu ham yo'q. Qolaversa, qishlog'imiz
maktubimni cheksiz armonlar odamlari ongiga, qizlarni 17
bilan yozyapman. Yaqinda yoshdan oshdimi, turmushga
oynaiy jahon orqali namoyish berish kerak, degan tushuncha
etilgan Zulfiyaxonim qizlari singib ketgan. «Qizlar o'qib nima
ishtirokidagi ko'rsatuvni ham qiladi? Undan ko'ra uy
havas, ham o'kinch bilan yumushlarini o'rganishsin,
tomosha qildim, turmushda asqotadi», deyishadi.
O'kinchimning sababi, men Qizlar ham, peshonamiz shu ekan,
hech qachon ulardek deb ketaverishadi...

bo'lolmasligimni yaxshi Maktubimni o'qib, bu qiz
bilganimdan...
Yoshim 17 da. O'rta pushaymon ekan-da, deb
maktabni ham tamomladim. o'ylayotgandirsiz. Unday emas,
Eng katta orzuim biror qishlog'imni juda yaxshi
oliyog'ga kirib o'qish. Lekin ko'raman. Qo'limdan kelsaydi,
buning uchun qishloq yoshlarimiz uchun zarur shart-
maktabida olgan bilimlarim sharoitlarni yaratib berardim.
yetarli bo'lmas, deb Sport zallari qurdirardim,
o'ylayman. Biror to'garakka to'garaklar ochib qo'yardim.
qatnay desam, qishloqda Shahar yoshlaridan bizning
to'garak nima qilsin? qayerimiz kam axir?
Dardingni so'raydigan, yoshlar

Farida ABJALILOVA,
Jizzax viloyati, Baxmal tumani, Yangiobod qishlog'idagi
54 - maktabning 11 - sinf o'quvchisi.

Rosti, biz oilamiz bilan hech qachon yakshanba kuni dam olish uchun sayr-u sayohatga chiqmasdik. Shanba kuni kechki ovqat mahal dadam: «Ertaga baliq oviga boramiz», deb qoldilar. Avvaliga bu gaplariga sirayam ishonmadim. Lekin tong otishi bilan dadam va ayam bizni barvaqt uyg'otdilar. Ov uchun tayyorlagan sumkamizga kerakli oziq-ovqatlarni va baliq ovlashga zarur bo'lgan anjomlarni joyladik. Dadam va ukam katta velosipedda, men o'zimning uchqur otimda yo'lga tushdik.



Insonga yaxshi va yomon kunida albatta do'st kerak bo'ladi. Do'stlaring, dugonalaring qancha ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. Meni gazetada maqolalarim ko'p chop etilib turadi. Bir kuni uyimizga xat keldi. Maktub Xorazm viloyatidan ekan. Hayron bo'lib, uni ochdim. «Salom Kamola,-deb boshlanardi bu maktub. - Mening ismim Ma'rifat. Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumanidagi 2-maktabning 11-sinf bitiruvchisiman. Bu qiz

MA'RIFATNING SURATI

meni qayerdan tanirkan, deb o'ylayapsizmi? Bir kuni uyimizga ukam «Tong yulduzi» gazetasini olib keldi. Uni varaqlay boshladim va «Yo'qolgan yon daftarcha» maqolasini o'qib chiqdim. Bu maqola menga juda yoqdi va siz - maqola muallifi bilan do'stlashgim keldi...»



Men ham unga maktub yo'lladim. Ma'rifat maktubida suratini ham yuboribdi. Sevinchimni ichimga sig'dirolmay, dugonamni sizlarga ham tanishtirgim keldi.

Kamola ERGASH qizi,
Toshkent viloyati, Toshkent tumani,
A.To'laganov nomli 7-maktab o'quvchisi.

CHUMOLINING JO'VI

Chumoli barvaqt turib,
Yuz va qo'llarim yuvib.
Dala tomon yo'l soldi,
Bir bug'doy topib oldi.




Darhol qaytib iniga,
Omboriga tashladi.
Olib qo'yib to'yiga,
Yana ishin boshladi.

O'tkir QO'CHQOROV,
Poytaxtdagi 316 - maktabning
7 - «G» sinf o'quvchisi.

BALIQ OVI

Ayajonim bizni eshigimiz oldida: «Ovingiz baroridan kelsin», deya kuzatib qoldilar. Bizning boradigan manzilimiz uyimizdan 20 chaqirim olisda ekan. Yo'lda ketyapmiz - u, ko'zim quv naydi. Tabiatning betakror jilosini zavq bilan kuzatdim. Shuning uchun ham shoir va yozuvchilar tabiat quchog'iga intilar ekanlar-da. Maftunkor tabiatning go'zalligidan sarxush bo'lib manzilga yetib kelganimizni ham sezmay qolibmiz. Bu yer Bachqir cho'li bo'ladi, dedilar dadam bizga. Cho'l havosi, boshqacha bo'larkan. Uyum-uyum qumloqliklar, kanal ichi esa ko'm-ko'k o'tlar bilan qoplanib yotardi. Hayratimni dadam tutgan baliqlar yanada oshirib yubordi.



Xullas, yozgi ta'til kunlaridagi ilk safarimiz uzoq xotiramizda saqlanadigan bo'ldi.
Rustamjon MALLAYEV,
Farg'ona viloyati,
Uchko'prik tumanidagi
1- iqtisodiy bolalar maxsus
maktab-internatining 3- sinf o'quvchisi.

OQ YO'L, SHOHIDA AXON!



Ohangaron tumani 1-o'quvchilar ijodiyoti markazi qoshidagi «Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zosi Shohida Jo'rayeva Bahodir Sodiqov nomli 38-o'rtta maktabning 7-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. U she'rlar, maqolalar ham yozib turadi. O'quvchim Shohida qiziquvchan, intiluvchan qiz. U atrof-muhitni, hayotni, tengdoshlarini kuzatishni va albatta bu kuzatuvlarini she'r, hikoya va maqolalar tarzida o'rtoqlariga tuhfa qilishni yaxshi ko'radi. Shohidaning bolalarga xos soddaligi uning ijod namunalarida ham aks etadi.

Men qobiliyatli shogirdimga, kelajak orzularing oppoq tonglar kabi oqliklarga burkansin, deyman.

Hayriniso JO'RAYEVA,
Toshkent viloyati, Ohangaron tumanidagi
1-o'quvchilar ijodiyoti markazi direktori.



KAMALAK
Velli xil rangi,
Jilosi yangi.
Do'stlarim tilang,
Velli xil tilak.

Bajo qilaman,
Shimarib bilak.
Furli ranglarim,
Xushnud damlarim.
Bo'lmayman halak.
Nomim kamalak.

ONAJON
Ko'z gavharim onajon,
Menga har on jonajon.
Qalb qo'rimsiz, mehrimsiz,
Hech tuganmas sehrimsiz.

Go'yo bulbuldek sayrab,
Yashayapmiz shod yayrab,
Dilingiz nurga to'lgan,
Uyimiz bahor bo'lgan.

Shohida JO'RAYEVA.

KIFOBIM

O'qiganda quv nar dilim,
Burrolashib ketar tilim,
Ardoqlaydi seni elim,
So'nmas ziyosan - kitobim.
Sayratguchidir zabanim,
Bilmas ma'nolarga konim,
Sen-la mazmunli har onim,
Mehrigiyosan - kitobim.
Yurakdan o'chmas bayolim,
Serjilva, nurli hayolim,
Xovuz tuyg'ularidan yotim,
Chin do'st, inoqsan - kitobim.
Fuzurbarsh, shodon nidoim,
Dillarda qolgan sadoim,
Qalblarga darmon fidoim,
Chaqnar mayjoqsan - kitobim.



Ustoz ijodi

O'ZBEGIM O'G'LONLARI

Chaqnab turar ko'zlari,
Mardonavor so'zlari,
Mardu maydon o'zlari,
O'zbekim o'g'lonlari.
Shahdam tashlar qadamin,
Gulga bezar chamanin,
E'zozlaydi Vatanin,
O'zbekim o'g'lonlari.



Mehnatsevar mardona,
Zakovatda yagona,
Har bir so'zi durdona,
O'zbekim o'g'lonlari.

Ko'zga surtib tuprog'in,
Charxlab aql chirog'in,
Tobora yuksakroqqa,
Ko'laradi bayrog'in,
Vatanim o'g'lonlari!



Surayyo REJAPOVA,
Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi
22 - maktab o'qituvchisi.

Mahallamiz «Ittifoq» deb ataladi. Bu yerda turli millat vakillari xuddi bir oila a'zolaridek ahil yashashadi. To'yu hashamlarda hamisha birgamiz. Mahallamizda istiqomat qilayotgan ziyoli, o'qimishli kishilarni ko'rganimda, ularga havas qilib, ulg'aygach albatta o'qimishli kishi bo'laman, derdim. Niyatlarim ijobat bo'ldi. Onajonim Jamila opa, otajonim Bo'riboy akalarning duosini olib, Ishtixon tumanidagi kollejga o'qishga kirdim. Bu yil ushbu ta'lim dargohini muvaffaqiyatli tugatib, qo'limga imtiyozli shifokorlik diplomini o'ldim. Ular mahallamizda savdo xodimi bo'lib ishlaydilar. Shirin so'z, oq ko'ngil, uyimizga yordam bo'lib, quruq qaytarganlarini hecham

MAHALLADOSHLARIMGA YELKADOSH BO'LAMAN

mahalladoshlarimga yelkadosh bo'lish. Onajonimning aytishlaricha, el nazariga tushish uchun hamisha sidqidildan mehnat qilish



ko'rmaganman. Katta-yu kichikka qo'llaridan kelganicha yordam beradilar. Biz farzandlarni ham hamisha halollikka o'rgatib tarbiyalamoqdalar. Onajonimning barcha ibratli fazilatlaridan o'rnak olgim keladi. O'g'lim, pul, boylik, mansab hammasi o'tkinchi narsalar. Hayotda eng muhimi bu kimgadir nafing tegishi, kimdir sendan minnatdor bo'lishidir, deydi. Ularning so'zlariga amal qilaman. Albatta o'ta-onamning ishonchini oqlayman.

Farhodjon JALILOV,
Samarqand viloyati,
Narpay tumani,
Oqtosh shahridagi «Ittifoq»
mahallasi.




-Miriqib dam olayapman. O'yijonim singlim ikkimizni istirohat bog'lariga, dam olish maskanlariga olib boryaptilar. Ta'til faqat dam olish degani emas. U o'qib-o'rganishimiz, dunyoviy bilimlarimizni yanada mustahkamlashimiz uchun ham berilgan. Shuning uchun ham ko'plab badiiy kitoblar o'qiyapmiz, chet tillarini o'rganyapmiz.

Yaqinda «Alisher Navoiy» nomidagi san'at saroyida namoyish etilayotgan «Bog'bon» nomli hind kinofilmini tomosha qilib qaytdik. Filmda hayot so'qmoqlaridagi notekisliklar, ota-onaga bo'lgan mehr-muhabbat, hurmat, burch kabi oliy tushunchalar to'laqonli aks ettirilgan. Filmdagi bosh qahramon obrazini zo'r mahorat bilan ijro etgan Amitabx Bachchan: «Nima uchun farzand yoshligida o'z ota-onasiga bemalol suyanadi-yu, ota-onasi keksayib, belidan madori, quvvati ketganda o'z farzandlariga emas, hassaga tayanadi?» degan so'zlaridan qattiq ta'sirlandim.

Darhaqiqat, ota-onalarimiz bizga bor mehrini, qalb qo'rini bag'ishlaydilar. Ko'z qorachig'idek avaylab, voyaga yetkazadilar. Bizlar-chi, hammamiz ham ularning qadriga yetib, hurmatlarini joyiga qo'ya olayapmizmi? Menimcha, yo'q. Istandimki, barchamiz ota-onalarimizni boshimizda ko'tarib yuraylik. Shundagina farzandlarimizdan ham shunday hurmatni kutishga haqlimiz.

*Dilafro'z Bonu USMONOVA,
Toshkentdagi 169 - maktabning 8 - «V» sinf o'quvchisi.*



M e n
ta'tilni
asosan
tabiat
qoynida

o'tkazyapman. So'lim Zarkentimning hushmanzara joylarini tasvirlashga harakat qilyapman. Chizgan rasmlarimdan ayrimlarini gazetaga yubordim, ular sizga ham ma'qul bo'ladi, degan umiddaman.

*Venera TURDIYEVA,
Toshkent viloyati,
Parkent tumani, Zarkent qishlog'i.*

Taassurotlarim...

-Saraton sariq ko'ylagini kiyib olgan ayni damlarda ta'til kunlarimizning ikkinchi oyi ham o'tib boryapti. Uni kim qanday o'tkazyapti bilmadimu, bizning tumanimiz o'g'il-qizlari maroqli o'tkazishayotganini aniq bilaman. Saratonda muzdekkina anhorlarda miriqib cho'milishga ne yetsin?! Tumanimizning Kumushkon qishlog'i va Sumcha dam olish maskanlarida bunday joylar ko'p. Katta-kichik xarsang toshlarga urilib, goh o'ynoqlab, goh shaldirab, goho sokin oqayotgan soyda cho'milib, toshlarning ustida chiniqib, chanqoqlarini buloqning shifobaxsh suvlaridan ichib, qondirib yurishibdi bolajonlar.

*Munisabonu XOLIQOVA,
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi
5 - ixtisoslashtirilgan maktabning
9 - sinf o'quvchisi.*



-Juda ko'p o'qiyapman, she'rlar mashq qilyapman. Chunki yaqinda ajoyib bir xushxabar eshitib qoldim: 2005 yil uchun Xazorasp tumani bo'yicha Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga ko'rsatiladigan nomzodlar orasida men ham bor ekanman. Bu yangilik zimmamga yanada ko'proq mas'uliyat yukladi. Nomzodimni ko'rsatgan tuman hokimligidagi insonlarning, qolaversa, menga bilim bergan ustozlarimning ishonchini oqlash uchun astoydil harakat qilyapman, ko'proq ijod qilib, izlanyapman. Yana ingliz tilini mukammal o'rganyapman. Ukam Orifjon ikkimiz uyimizda mo'jagina muzey tashkil qildik va u yerda esdalik uchun rasmga tushdik. Muzeyimiz sizga ham yoqadi, degan umiddaman.

*Mohima BOBOYEVA,
Xorazm viloyati, Xazorasp tumanidagi
M. Ulug'bek nomli maktabning
8 - «A» sinf o'quvchisi.*

MEN YOZGI TA'TILDA ...

-Darslar bilan band bo'lib, o'qishga ulgurilmagan kitoblarimni o'qib chiqyapman. Yaqinda Pirimqul Qodirovning «Bobur» nomli romanini o'qib tugatdim. Yana to'qishni o'rganyapman.

Tunov kuni onam bilan bozorga borgandik. Ulug'aygach, jurnalist bo'lishni orzulab yurganim uchun atrofdagi voqea-hodisalarga befarq emasman. Axir ustozimiz shunday o'rgatgan-da... «Yaxna choylar keldi, kimga choy?», deya baqirib, arava sudrab yurgan 13 - 14 yoshlardagi bolalar e'tiborimni tortdi. Shu payt turk xonandasining «Uning aravasi bor» degan qo'shig'i yangrab qoldi. Bolalardan biri sherigiga so'z qotdi: «Hakim, biz haqimizda kuylashyaptimi deyman...»

Dastlab ularga juda havasim keldi. Choy sotib bo'lsa ham ota-onalariga ko'mak berishyapti. Balki ishlab topgan pullariga o'zlari uchun darsliklar, o'quv-qurollari sotib olishar, hama yordam-da, deb o'ylagandim. Keyin esa, tezroq bo'l, men hamma choyimni sotib bo'ldim, kechgacha kompyuterda o'ynashga yetadigan pul topdim, degan gaplarini eshitib, hafsalam pir bo'ldi. Kun bo'yi issiqda charchab-horib topgan pullarini huda-behudaga ishlatishar ekan-da. Ularning bunday yo'l tutishayotganidan ota-onalari xabardormikanlar? Bolalarini tergap, yurish-turishlaridan hech h bo'lmaganda burchi-ku, axir, ham turish ularning telefon orqali Qolaversa, xabardor bo'lib kompyuterlardagi burchi-ku, axir, biz bolalarning jangari filmlar ota-onalar, tengdoshlarim?



*Nodira MAJIDOVA,
Poytaxtdagi 70 - o'rta maktabning 5 - «A» sinf o'quvchisi.*

-Zerikish nimaligini bilmayman. Soyliq qishlog'imiz Bo'stonliq tumanining so'lim go'shalaridan sanaladi. Soya-salqin bog'larda dugonalarim bilan miriqib o'ynaymiz. Qiziqarli kitoblar o'qib, mazmunini bir-birimizga so'zlab beramiz. Yana oyijonlarimizdan turli pishiriqlar va shirinliklar tayyorlashni o'rganib olayapmiz.

Yaqinda dugonalarim bilan qishlog'imizda joylashgan «Soyliq» bolalar oromgohiga bordik. U yerda dam olayotgan o'g'il-qizlar bilan tanishib, do'stlarimiz safini yanada kengaytirdik.


-Men Fotima Atabayevaman,-deya o'zini tanishtirdi dam oluvchilardan biri.- Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 9 - maktabning 9 - sinfida o'qiymen. Bu oromgoh menga juda yoqdi. Har bir kunimiz tadbirlarga, ko'rik va musobaqalarga boy, maroqli o'tyapti. Umrimda tog'larni ko'rmagandim. Ertaga toqqa sayohatga chiqarkanmiz...

-Men «Aloqachi», «Chimyon», «Konstruktor» nomli oromgohlarda dam olganman. «Soyliq» hammasidan ham ko'ra ko'proq yoqdi, - deydi poytaxtning Hamza tumanidan kelgan Ravshan Jabborov.-Sharoitlari juda yaxshi, ovqatlari mazali. Tarbiyachimiz Elvira opa Sharipova, ayniqsa, bemor bo'lmasak ham salomatligimizni doim nazorat qilib turadigan shifokorimiz. Tamara opa juda mehribon, shirinso'zlar. Faqat ota-onamizni biroz sog'inib qolyapmiz-da. Lekin oromgohni ham tark etgimiz yo'q...

-Yo'llanma bo'lsa, yana kelardim,-deya suhbatimizga qo'shildi Mirzo Ulug'bek tumanidagi 35 - maktabning 8 - sinf o'quvchisi Bobur Jo'rayev.-Hademay yana poytaxtga qaytib ketamiz. Ota-onamizning aytishlaricha, shahar juda issiqmish. Sizlarga juda havasim kelyapti. Mana shunday so'lim go'shada yashaysizlar...

Darhaqiqat, juda omadlimiz-da. Shunday chiroyli, so'lim go'shada yashaymiz. Shaharlik tengdoshlarimiz kabi ota-onamizni sog'inib ham qolmaymiz...

*Umida MURODOVA,
Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani, Soyliq qishlog'idagi
11 - o'rta maktabning 6 - sinf o'quvchisi.*



Bu yilgi topshiriqlar avvalgi yillardan tubdan farq qilib, ular sizlarning aynan nazariy bilimlaringizni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishga imkoniyat yaratadi.

Mana shu sababdan bo'lsa kerak, bizga yo'llagan maktublaringizda sizning iqtisodiy bilimlaringizni nechog'li chuqur egallaganingiz o'z aksini topmoqda.

Biz mutasaddilar bilan maslahatlashib, tanlovda eng faol qatnashayotgan o'quvchilar ro'yxatini chop etishga qaror qildik. Ular quyidagilar:

* Samarqand viloyati, Paxtachi tumani, 15-maktabdan S.Salimov, M.Hasanova, S.Xol'minova, D.Jumayev, E.Umarov, A.Husanov, Z.Xoliqova, Sh.Elmazarova.

* Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani, "Ahmad Donish" maktabidan A.Bekmurodova.

* Navoiy viloyati, Xatirchi tumani, 22-maktabdan Sh.Abdievva.

* Buxoro viloyati, Rahmat Botirov shirkat xo'jaligi, 1-maktabdan U.Bozorov.

* Andijon viloyati, Zavraq qishlog'idan F.Yusupov.

* Andijon viloyati, Qorasuv shahar, 19-maktabdan M.Davlatov.

* Andijon viloyati, Qo'rg'ontepa tumani, 30-litsey-internatdan S.To'lanova, I.Qambarova, M.Niyozova, A.Qambarova, Q.Xoldaraliyev, O.Chirmasheva, J.Mahammadjon qizi, G'.Karimov, F.Aliboyeva.

* Buxoro viloyati, Jondor tumani, 20-maktab internatdan O.Qurbonov, F.Jo'rayev, K.Rahmonov.

* Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, "Iqtisodiyot va huquq" litseyidan F.Saydaliyeva.

* Farg'ona viloyati, Bag'dod tumani, 2-maktab litseydan N.Ro'zmatov, T.Rahimov.

* Surxondaryo viloyati, Uzun tumani, 3-maktabdan J.Ernazarov, I.Saidov, A.Rahmonov, Q.Toshmirzayev, Sh.Rasulov, Sh.Muhammadiyev, A.Mamatqulov, A.Boymuhammadov, F.Roziyeva, O.Allayorov, Sh.Ziyodullayev, A.Rahimov, I.G'ulomov.

* Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, 39-maktabdan N.Rahimova, S.Murodova, U.Eshonqulova.

* Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, 4-maktabdan S.Rajabov, X.Xidirov.

Iqtisod saboqlari

Bizning tanlovimizda O'zbekiston teleradiokompaniyasi "Yoshlar" telekanali ham qatnashish istagini bildirib,

televideniya orqali ayrim topshiriqlarni va tanlovda eng faol qatnashayotgan o'quvchilar nomlarini e'lon qilib borishni o'z zimmasiga olmoqda.


Demak, tanlovimiz tele-tanlovga ham aylanmoqda.

Shuni e'tiborga olib, biz tanlovimiz muddatini sentabr oyigacha uzaytirishga qaror qildik.

Sizlar uchun topshiriqlarni tayyorlayotgan g'oliblarni taqdirlash uchun mablag'lari bilan homiylik qilayotgan olimlar, iqtisodiyot fani asosiy darsliklarining asosiy mualliflari Ergashvoy Sariqov va Bahodir Haydarovlar safiga yana bir yosh iqtisodchi kelib qo'shildi.

Bu Toshkent davlat sharqshunoslik institutining xalqaro iqtisodiy munosabatlar fakultetini 16 yoshida bitirgan Sherzodbek Sariqovdir.

"Tong yulduzi" gazetasini muntazam o'qib boring va "Yoshlar" telekanalining "Yoshlar ovozi" ko'rsatuvini tomosha qiling.



ZUHROBSHOHNI TANIYSIZMI?

Ko'pchilik bolalar ismlari tarixini, qanday ma'noni anglatishini yaxshi bilishadi. Bugun sizlarga tanishtirmoqchi bo'lgan tengdoshingizning ismi Zuhrobshoh. Yoshi 11 da. Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi Nodirabegim nomli 265-o'rta maktabning 4- «V» sinfini a'lo baholarga bitirdi. Ismining ma'nosini so'raganimda, u: «Ikkinchi asrda turklar shohi bo'lgan sahiy shohga berilgan ismdir», - deb ravon javob berdi. Bolakayga shunday ism qo'yishni bobosi vasiyat qilgan ekan.

-Zuhrobshoh, maktabdagi baholaring qanday?

-O'qishlarim yaxshi va a'lo.

-Qaysi fanlarni yoqtirasan?

— O'qish, matematika, yana hamma bolalarga yoqadigan, jismoniy tarbiya fanini yoqtiraman.

— O'qish fani yoqadi, deding, kitob o'qishga ham qiziqasanmi?

-Ha, albatta. Ertaklar jonu dilim. Yaqinda «Kalila va Dimna» turkumidan bir nechta ertaklar, yana «Ilon pari», «Muqbil tosh otar» nomli ertakni o'qib tugatdim.



Ushbu ertak juda qiziqarli ekan. Men yana bir afsona bilaman. Menga uni xolam aytib berganlar.

-Qani, eshitaylik...

...Bir kuni shayton bolasi dadasi bilan ketayotgan ekan. Ular yo'lda qo'yni ko'rib qolishibdi.

— Dada, bu nima? — deb so'rabdi shayton bolasi.

— Bu qo'y, odamlarga go'sht va teri beradi, — debdi shayton.

Keyin ular sigirni ko'rib qolishibdi.

— Dada, bu nima? — deb so'rabdi shaytoncha.

— Sigir, bu ham odamlarga go'sht, teri, sut beradi, — debdi.

Ular yana yo'lda davom etishibdi. Shunda oldilaridan odam chiqib qolibdi.

— Bu nima? — debdi yana shaytoncha.

— Bumi, bu odam. Biz undan ehtiyot bo'lishimiz kerak, agar u biror ayb ish qilib qo'ysa, bizni aybdor qiladi...

-Rivoyatning mazmunini tushundingmi?

- Albatta. Biz mabodo gunoh ish qilib qo'ysak, meni shayton yo'ldan urdi, deyishga o'rganib qolganmiz, Aslida ayb

YIM o'smoqda

Ko'rsatkichlar	o'l. bir.	2000-y.	2001-y.	2002-y.
Yalpi ichki mahsulot (YIM)	mlrd. so'm	3255,6	4925,3	7469,3
Oldingi yilga nisbatan	% da	100	104,5	229,4

Manba: "Сельское хозяйство Республики Узбекистан"-2002.

- Yuqoridagi jadvalni diqqat bilan ko'zdan kechiring.

- YIMning bu qadar tez o'sishi sabablarini aniqlashga harakat qiling.

Soliqlardan qutulish mumkinmi?

"Dunyoda o'lim va soliqdan boshqa har qanday narsadan qutulish imkoni bor", degan edi mashhur Benjamin Franklin. Internet ham o'limdan qutulish imkonini bermaydi, ammo bugungi kunda u tufayli jahonning ko'plab mamlakatlarida soliq undirish masalasida bir qancha muammolarning yuzaga kelish xavfi paydo bo'ldi. Misol uchun, agar, germaniyalik bir xaridor mahalliy do'konlarning biridan kompakt disk sotib oladigan bo'lsa, u kompakt diskning narxiga qo'shilgan 16% miqdordagi qo'shimcha qiymat solig'ini ham to'lashga majbur bo'ladi. Ammo, agar u xuddi o'sha kompakt diskni internet orqali bironta Amerika onlayn do'konidan sotib olsa va disk unga pochta orqali yuboriladigan bo'lsa, u qo'shimcha qiymat solig'ini to'lmasligi ham mumkin, chunki soliq inspeksiyasining mamlakatga kelgan har bir pochta tekshirib chiqishga na huquqi va na imkoniyati bor.

Ayniqsa, internetdan yozib olinuvchi musiqa, videofilmlar, programmalar soliq inspeksiyalari uchun juda katta muammolarni yaratadi. Bu kabi raqamli mahsulotlarning savdo-sotig'ini soliq inspeksiyalari umuman nazorat qila olmaydilar.

Internetning shu va shunga o'xshash muammolarni vujudga keltirishi mumkinligini hisobga olgan holda Yevropa Ittifoqi (YEI) komissiyasi YEI hududida faoliyat olib boruvchi, yillik oboroti (aylanmasi) 100 ming yevrodan ko'prog' bo'lgan onlayn sohasidagi savdo kompanyalari hech bo'lmaganda YEI tarkibiga kiruvchi mamlakatda registratsiyadan o'tishi hamda har bir sotilgan mahsulot va xizmatlardan QQS ini to'lash lozimligini aytmoqdalar. Ammo ko'pchilik bunday qilishning iloji yo'q deb hisoblamogda. Internet davlatlarning soliq tizimiga qancha zarar yetkazishi mumkinligini aytish qiyin, ammo shunisi aniqki, ertami-kechmi baribir bu muammo ham o'z yechimini topadi.

- Internet orqali savdo qilinganida soliqning qanday turlaridan qochishga imkoniyat tug'iladi?

- Bunday salbiy ko'rinishlar internet orqali savdo qilishning taqiqlanishiga olib kelishi mumkinmi?

- Yuqoridagi muammoning qanday yechimlari bo'lishi mumkin?

o'zimizda bo'ladi...

- Ta'tilni qanday o'tkazyapsan?

- Oromgohda Shahzod, Mahmud, ukam Shahzod bilan birga mazza qilib dam oldik.

Yana kompyuter sirlarini ancha o'zlashtirib oldim.

— Sportga qiziqasanmi?

— Velosiped va sket uchishga juda qiziqaman. Endi suzish bilan shug'ullanmoqchimiz. Oyim «JAR» sport majmuidagi mashg'ulotlarga olib bormoqchilar.

— Kelajakda kim bo'lmoqchisan?

— Sudya yoki advokat bo'lishni xohlayman. Bu kasbni tanlashimga sabab, ularning ishi juda qiziqarli. Balki tadbirkor bo'larman dadamga o'xshab...

— Katta bo'lganingda qaysi shaharga borishni xohlarding?


-Angliya va Nyu-York shaharlarida bo'lishni xohlardim. Chunki ular rivojlangan shaharlardan hisoblanadi. Bu shaharlar hamma talabga javob beradi.

-Baribir o'z Vatanimizdek bo'lmasa kerak?

-Albatta, odam o'z tug'ilib o'sgan joyida aziz hisoblanadi. «O'zga yurtida shoh bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l», deb bekorga aytishmagan-ku...

Zuhrobshohning burro-burro gaplarini tinglarkanman, uning kelgusida yurtimiz ravnaqiga ravnaq qo'shajagiga amin bo'ldim.

Muxiddin ALIMBOYEV suhbatlashdi.



Sog' yurak - tog' yurak

Armrestling-qo'l kurashi degani. Dastlab Amerikada paydo bo'lgan bu sport turi bilan endilikda dunyodagi yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan insonlar sevib shug'ullanishmoqda. Qo'l

uchun umid manzillarini kashf etmoqdalar.

Hammabop armrestling sporti Toshkent, Farg'ona, Navoiy, Jizzax, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida ayniqsa rivojlanyapti.

Tobora ommaviylashib borayotgan armrestlingni dunyoning mashhur sportchisi Arnold Shvarsnegger olimpiya o'yinlari dasturiga kiritish uchun harakat boshlagan.

KIM SHER BILAKLI?

kurashi bo'yicha sohibqiron Amir Temur bobomiz davrida ham sarbozlar musobaqalashishgan ekan. G'alaba esa albatta sher bilaklarniki bo'lgan. Armrestling sport turlari

orasida eng arzon va qulay sport turidir. Bu sport turi uchun atigi birgina stolning o'zi kifoya. Ikki yildirki men ham bu sport turiga astoydil qiziqib qoldim. Gavhar, Go'zal, Sarvinoz, Anya, Mariya singari dugonalarim bilan Navoiy shahri «Kimyogar» stadionidagi «Arnold» klubida har kuni mashq qilyapmiz. Murabbiyimiz, xalqaro toifadagi sport ustasi Igor Shishkovdan armrestlingning sir-sinoatlarini o'rganyapmiz.

Armrestling taqdir taqozosi bilan yugurolmay, sakrolmay qolgan, lekin sportni jon- dilidan sevgan ba'zi nogiron yoshlarga ham ma'qul kelyapti. Sport bilan do'stlashib, ular o'zlari



Harakatlarimiz besamar ketmayapti. Armrestling federatsiyasi Prezidenti, Xalq ta'limi vaziri Risboy Jo'rayev yurtimizda bu sport turini ommalashtirish

ishlarida faol qatnashmoqda. Biz yaqinda chempionlik sharafiga erishdik. Musobaqalar davomida Osiyo chempionatiga yo'llanma oldik. Noyabr oyida esa Janubiy Afrika Respublikasida bo'lajak jahon chempionatida ham bellashish niyatimiz bor.


Garibyan MARINE,
sport ustasi.

SPORT BILAN

Hammamizga ma'lumki, Prezidentimiz biz yoshlarning sport bilan shug'ullanishimizga juda katta e'tibor qaratayaptilar. Joylardagi sport majmualari, sport zallari qaytadan ta'mirlanib, kerakli jihozlar bilan to'ldirilmoqda.

Toshkent viloyati, Parkent tumanida ham sportning karate, taekvando, milliy kurash va boshqa turlari bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, milliy kurash turi bu yerda keng rivojlangan. Men ana shu sport turi bilan bir necha yildan beri shug'ullanib kelayotgan Xushnud Xayitmatov bilan suhbatlashdim.

-Men sportga bolaligimdan qiziqaman, - deydi Xushnud aka, - 9 yoshimdan kurash mashg'ulotlariga qatnay boshladim. Kichik-kichik musobaqalarda qatnashib turdim. Mening ilk ustozlarim Akmal Dadamatov va Xoldor akalar kurashning sir-sinoatlarini o'rgatishgan. Kurash musobaqasida 6-sinfda o'qib yurganimda birinchi marta maktablararo qatnashib, 2 - o'rinni olganman. 9 - sinfdaligimda Farg'onada bo'lib o'tgan «Umid nihollari» sport musobaqasida 3-o'rinni



DO'STLASHSANGIZ...

oldim. 2003 yil Xorazmda bo'lib o'tgan turnirda 2-o'rinni, bu yil Farg'onada o'tkazilgan turnirda esa faxrli 1-o'rinni egallab, oltin medal sohibi bo'ldim. Intilganga tole yor, deganlaridek, tinimsiz mashqlar, qiyinchiliklar tufayli shu darajaga yetdim. Sport salomatlikni tiklash bilan birga insondagi eng oliy fazilatlar bo'lmish iroda, chidamlilik, sabrbardosh, shaxsiy mustaqillikni tarbiyalaydi...

Ha, sport chindan-da kishini yuksak cho'qqilarga yetaklaydi. Siz ham sport bilan muntazam shug'ullaning. Orzuangiz amalga oshib, O'zbekiston chempionlari qatoridan joy olsangiz, ajabmas...

Shahzod QAYUMOV,
Kasb-hunar kolleji talabasi.

«QULOQ CHO'ZMA» QANDAY O'YIN?

O'zbek xalqi juda mehnatkash xalq. Bu xususiyat ularning qon-qoniga singib ketgani uchun ham ular mehnat fasllari tugab, nafas roslash damlarida turli o'yinlar kashf qilishgan. Bu o'yinlar insonni jismonan baquvvat qilib, aqlni peshlagan. Bizning qadim ajdodlarimiz stadion o'rnida katta-katta maydonlarni tekislab, o'sha yerda turli-tuman o'yin sayllari o'tkazishgan. Bu qiziqish bora-bora hozirda dunyo xalqlari sevib o'ynaydigan ko'p o'yinlarni keltirib chiqargan.

Eng qizig'i, o'sha paytlarda o'yin uchun mo'ljallangan maydonlarga ajriq o'simligi ekilgan va yam-yashil o'yingohlar tarkib topgan. U yerda kurash, quloq cho'zma, uloq, tarafma- taraf va boshqa qiziqarli o'yinlar o'ynalgan.

Aytishlaricha, dunyo meditsinasining otasi Abu Ali Ibn Sino ham shifo istab oldiga kelgan xafaqon, asab kasalliklariga chalingan bemorlarga o'sha maydonlarda o'ynaladigan o'yinlar bilan muntazam shug'ullanish kerakligini maslahat bergan ekan. Bizning milliy o'yinlarimizda sir ko'p. Siz hech kuzatganmisiz, o'rtoqlari bilan quvlashmashoq yoki bekinmashoq, qo'yingki, boshqa o'yinlar o'ynab kelgan bolangizning ruhi juda ko'tarinki, ishtahasi hamisha ochiq bo'ladi. Bu esa bolangizning salomatligi garovidir.

Ammo negadir keyingi paytlarda bolalarimiz milliy o'yinlarimizni o'ynamay qo'yishayotganday nazarimda.

Biz bolaligimizda «Chillak», «Oq terakmi, ko'k terak», «G'uv-g'uv», «Eshak mindi» kabi o'yinlar, qizlar esa «Sandiqcha - kursicha», «Yashil ro'molcha»,

«To'p tosh» o'yinlari bilan mashg'ul bo'lardik. Ko'pincha qizlarimiz qaddi-qomatlarini raso bo'lishini xohlab, turli dori-darmonlar iste'mol qilishadi yoki sheypingga qatnashishadi. Avvallari bu juda oddiy hal qilingan, ya'ni ikki qiz orqama-orqa bo'lib, bir-birlariga qo'llarini chalishtirib, navbat bilan bir-birlarini ko'tarishgan. Bu esa «Sandiqcha - kursicha» o'yini deb atalgan. Bu o'yin bilan muntazam shug'ullangan qizlar xipcha bel va qomati raso bo'lgan.

Quloqda organizmning juda ko'p nuqtalari joylashgan bo'ladi. «Quloq cho'zma» o'yinida ham xuddi shu tomonlar hisobga olingan. Davrada kimdir do'ppisini tashlaydi, do'ppini qo'lga olgan odamdan uni tortib olish uchun o'nta odam uning quloq'idan cho'zishga urinadi. Ammo sovrinni qo'lga kiritish uchun u quloqlaridan tortishlariga ham e'tibor bermaydi. Do'ppini davra boshiga ephillik bilan eltib beradi. G'olib davradan chiqar ekan, o'zini qushdek yengil his qiladi. Unga ham sovrin,



ham tunganmas sog'liq tegadi. Hali ham esimda, majnuntolning ikki xivichini olib, bir-biriga bog'lab, ikki o'rtog'imiz aylantirar, biz esa uning ustidan sakrardik. O'ynab charchaganimizdan so'ng negadir fikrim ravshan tortgandek bo'lardi. Undan so'ng o'tirib qiziqarli kitoblar o'qirdik. O'sha paytlar jismoniy tarbiya darslariga juda ham qiziqardik.

Men yuqorida hozirgi bolalar milliy o'yinlarimizni o'ynamay qo'yishdi, dedim. Nega shunday? Nazarimda bunga jismoniy tarbiya o'qituvchilarining loqaydligi sabab. Chunki, har qanday dars o'z tarixi bilan qiziqarlidir. Jismoniy tarbiya o'qituvchilari milliy o'yinlarimiz tarixi, uning foydali tomonlari haqida gapirib, bolalarni qiziqtirganlarida edi, ular bu o'yinlarni bajonidil o'ynashardi.

To'g'ri, ko'p bolalar boks, taekvando, karate to'garaklariga qatnashadi. Yana bir narsa, bizning milliy o'yinlarimizda bolaning tanasiga zarar yetkazadigan tomonlari yo'q. Men bu bilan boshqa sport o'yinlarini kamsitmoqchi emasman. Faqat bobomeros o'yinlarimizda insonning-insonga mehri saqlanib qolganligini ta'kidlamoqchiman, xolos. Masalan, kurash yoki quloq cho'zmani olaylik. Unda ikki tomon yoki bir va undan ortiq odamlarning shavq bilan bir-biriga zarar yetkazmay olishuvi aks etadi. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, bunday o'yin ishtirokchilarining yoshi chegaralanmagan bo'ladi. Boks yoki taekvandoda esa albatta yosh hisobga olinadi. Qolaversa, ma'lum ma'noda tan jarohatlari olinadi.

Biz ozod O'zbekistonimiz ertasini yaratuvchilari - bolalarimizda milliy o'yinlarimiz haqida tasavvur uyg'otsak, bu o'zbek sportining kelajagiga yana bir dadil qadam qo'yilgani bo'ladi deb o'ylayman. Zero, milliy o'yinlarimiz bugun dunyoga tanilayotgan sportimizning ildizidir. Ildizi baquvvat daraxt yanada barq uraveradi, hech qachon qulamaydi.

Vodiylik Tursun Ali POLVONning
gaplarini oqqa ko'chiruvchi
Ma'mura MADRAHIMOVA.

Ustoz! Bu ulug' siymoni asosan barcha o'quvchilarni onaga qiyoslashadi. Sababi, diqqatini jamlashga harakat xuddi onamiz singari bizning qilaman. kelajagimiz, O'tilayotgan kamolimiz har bir mavzu uchun o'quvchilarga qanchalik qayg'uradi. Bizning Narpay tushunarli bo'layapti, bu men tumanida joylashgan 23- o'rta uchun o'ta muhimdir. Saboq maktabda ana shunday berish jarayonida barcha mehridaryo muallimlarimiz bolalarni nazardan

Havas

SIZGA O'XSHASAM DEYMAN

ko'pchilikni tashkil qilishadi. qochirmaslikka, yangi mavzuni Ulardan biri Shahodat opa darrov o'zlashtirib oladigan Qurbonovadir. o'quvchilar sonini -Ilk muallimlik faoliyatimni ko'paytirishga, ularning bolalik 1993 yilda ingliz tili fanidan dunyosiga kirishga intilaman. saboq berishdan Ustoz uchun shogirdning boshlaganman,- deya kamolini so'z boshladilar ko'rishdan Shahodat opa. ortiq baxt O'shanda juda bo'lmasa hayajonlanganman. kerak. O'quvchilarning menga hayrat va Sardor Murtazoyev, havas bilan qarab Navro'z Abdullayev, turganliklarini ularga Ozod Turpov, ko'rib o'quvchilik oliygohga kirish «ball»im yillarimni yetmaganligi sababli talabalik eslaganman. Qisqa bilan cheksiz fursatda sevimli ustozlarim faxrlanaman. Zulfiya Ularining Omonova, Amir barchasi oliy ma'lumotli yetuk Mamatqobilov, Ibodulla mutaxassislardir. Akobirovlar bir-bir ko'z Shogirdlarimga bergan o'ngimdan o'tgan. Ularni o'z bilimlarim, chekkan kasblariga bo'lgan mehrlarini zahmatlarim zoye eslab darrov o'zimni o'nglab ketmaganidan mamnun olganman. Dars jarayonida



Samarqand viloyati, Narpay tumanidagi «Nigoh» gazetasining jamoatchi muxbiri.

Men bo'sh vaqtlarimda bobomdan turli ertaklar, afsonalar eshitib o'tirishni yoqtiraman. Bir kuni ular menga juda qiziq voqeani aytib berdilar.

Bir kuni bobom buvim bilan janjallashib qolishibdi. Buvim shartta oyilarinikiga jo'nab qolibdilar. Bobom uyga kelsalar, hech kim yo'q emish... Gap nimadaligini bilgan bobom kech bo'lishiga qaramay, yo'lga tushibdilar. U paytlarda hozirgidek yarim kechasigacha avtobuslar yurmas ekan. Ular bir amallab, Parkentgacha yetib olibdilar-u, u yog'iga mashina topolmay rosa qiynalibdilar. Oxiri piyoda yo'lga

BUVAM MINGAN ESHAK

tushibdilar. Yo'lda ketayotib, katta daraxt tagida eshak turganini ko'rib qolibdilar. Birovning eshagi adashib qolibdi, deb o'ylab, uni osongina tutib olibdilar-u, minib, yo'lda davom etibdilar. Eshak ham rosa yuvvosh chiqibdi. Uni «hix-hix» deb niqtalarmishlar-u, o'zlarining oyoqlari yerdan uzilmasmish... Bobom buni bo'yim uzun-da, deb o'yabdlar-da, eshakni niqtalab ketaveribdilar. Ko'zlangan manzilga yetgach, «Yobismillo» deb eshakdan tushmoqchi bo'lsalar, u ko'zdan g'oyib

bo'libdi... Qo'rqib ketgan bobom tez-tez yurib, katta oyimlarning uyiga kirib ketibdilar. U yerga borgan, bo'lgan voqeani ularga aytib beribdilar. -Shu yergacha eshaknimas, jinlarni minib kelibsiz-da, kuyov, hayriyat, xudo asrabdi, -debdlar ko'pni ko'rgan katta oyim. Bobom bu voqeani menga aytib berib, ko'rdingmi, buvingni olib kelaman deb, ajinani minganman, deb kulib qo'yidilar.

Gavhar SHOMANSUROVA.

Kunlardan bir kun

SINFIMIZ BILAN ...

Salom mening eng sevimli gazetam «Tong yulduzi».

Men senga birinchi marta xat yozayapman. Sening avvalgi sonlaringda «So'z o'yini» rukni ostida berilayotgan o'yin menga juda yoqar edi. Ushbu o'yinga havasim ortib, sinfdoshlarim bilan 19 may kuni ona tili darsida shu o'yinni o'ynab ko'rdik. «O'zbekiston» so'ziga so'z tuzdik. Bu ishda sinfdosh do'stlarim: Mahliyo, Bobomurod, Boburbek, Xolida, Inoyat va Feruzalar juda katta yordam berishdi. 56 ta so'zni hosil qildik.

Ustozim Ra'no opa Abdurahmonova ushbu xatni yozish fikrini menga bildirganliklari uchun ularga rahmat. Tengdoshlarimga ham alangali salom. Yozgi ta'tilni maroqli o'tkazsinlar. Ha, aytganicha, biz sinfimiz bilan shu yil senga obuna bo'ldik. Ishlaringda omadlar yor bo'lsin deb,

Mahliyo ALABERGANOVA,
Xorazm viloyati, Qo'shko'pir tumani,
az-Zamaxshariy nomli 5-o'rta umumta'lim maktabning
6- «V» sinf o'quvchisi.

(Davomi. Boshi gazetasining o'tgan sonlarida.)

-O'g'lim, qani gapir!- dedi tabassum bilan ayvonga yonboshlagan G'iyosiddin o'g'lini bag'riga olib.

Kichkina Alisher kattalardek jiddiyat ila ko'rgan va eshitganlarini batafsil so'zlab berishga urindi.

-Samarqanddan Xonzodabegim kelibdilar, katta yig'in, ziyofat bo'ldi. Shahzodalar, beklar, ulug' zotlar ko'p edi. Keyin shahzoda Abdullatif g'oyat tantana ila kelib, Xonzodabegim bilan ko'rishdi. Andek munoqasha bo'ldi. Dada-chi, u otasini yomon ko'rarkan, hech aqlim bovar qilmaydir, nega shunday ekan? Sul-ton Ulug'bekni shahzoda yomonladi. Xonzoda bibimning jahli chiqdi, anov kuni biznikiga kelgan barlos sultonni maqtagan edi, Husayn Mirzoning dadasi g'azablendi.

G'iyosiddin kichkina o'g'lining so'zlarini bo'lmaslik uchun jim quloq solar, uning o'tkir, ravshan fikr yuritishini sevinch ila kuzatur edi.

-Keyin sozandalar, raqqosalar g'aroyib bazm boshlab, hushimni oldilarg'azallarga jo'r raqslarni yoqtiraman.

-Qilu qoliga qadar qoldirmay hikoya qilding, bas endi, Ali, tur, kiyimlaringni yech!- deb buyurdi xonadan uy kiyimlarini kiyib chiqqan Gulbegim eri qarshisiga o'ttirar ekan.

-Abdullatif shahzoda kelibdimi ziyofatga? Alining ayganlaridan andek so'z jangi bo'lganini fahmladim, o'zi nima gap?

-Gaplari sovuqqina-da, shahzoda Abdullatifning. Xonzoda xiyli ranjidilar,- dedi Gulbegim va bo'lgan gaplarni, barlosning so'zlarini aytdi. Shunday keksa,

ALISHERNING YOSHLIGI

OYBEK

mo'tabar odamni Mansur Mirzo siltab tashlasa, o'lay debman, barchamiz shoshib qoldik. Qo'ying-chi, shahzodalar barchalari taxt deganda otadan ham, boladan ham kechadilar, aralashmang, o'zingizni chetda tuting, janobim.

-Haqiqatni aytasen, begim,- dedi og'ir o'ylanib G'iyosiddin.- Lekin mamlakat, davlat, uluslarimiz faje'ahvolda. Shahzodalar goh ochiq, goh pinhon bir-birlariga, otaga, boboga choh qazurlar, taxt uchun jonlarini tikib, imonlarini yuturlar. Jarohatlar ko'p, yurt falokat



yo'lidadir, bu haqiqat.

-Asta gapiring,- dedi tashvishli ohangda Gulbegim.

-Turkiston o'lkasi,- deb davom etdi o'z fikrlariga qattiq bandligidan xotining so'zlarini eshitmagan G'iyosiddin,- jannat kabi bir makondur. Bog'lari, mevalarining ta'rifidan har kimsa ojiz. Har bir jang jannatni do'zaxga aylantiruvchi falokat-ku.

Ota va ona gangur-gungur uzoq

gaplashib o'ltirdilar. Ali esa otasining bag'rida churq etmasdan tinglardi.

Quyuq oqshom tushganda mis shamdonga qo'ndirilgan shamlarni yoqib, o'choq boshidan enaga keldi:

-Yur, o'zim yaxshilab ko'rpangni solib qo'ydim, charchagansan, uxla toychoq'im! -Shamni endi yoqingiz, hali vaqqli, bibijon,- deya e'tiroz bildirdi Ali.

-Horib kelding deyman-da, ixtiyor o'zingda, bolaginam.

-Bibi, bobom uydamlar?- deb so'radi Ali.

-Allaqachondan beri uydalar!

Irg'ib o'rmidan turgan Ali cholning oldiga yugurar ekan, orqasidan onasi qichqirib qoldi:

-Allamahalgacha o'ltirmagin, Alijon!

-O'g'lining «xo'b, xo'b!», degan ovozi hovlining uzoq bir burchidan eshitildi.

-Oqshomingiz xayrli, otaxon,- dedi Ali uyga kirgan hamon.

Bolishga yonboshlagan chol tasbeh o'girib o'ltirar edi. Alini ko'rib sevinganidan muloyim yuziga tabassum yoyildi:

-Kel, kel, toychoq'im, qayerda qolding?- deya yoniga o'tqizib peshonasidan o'pdi.

Ozoda supurilgan xonaning tokchalarida egar-jabduq, arra-egov kabi abzal-asboblar yotar, cholning oldida zig'ir yog'li qora chiroq miltillab turar edi. Chetdagi qoziqda esa katta beso'naqay qinli qilich va o'q-yoy osig'liq. Alisher bu

xonaga qachon kirmasin ko'zi eng avval shu aslahalarga tushar va har vaqt bu haqda gaplashuvni sevar edi.

-Bobojon, daladan keldingizmi? Otdami?- deya so'radi Ali cholning pinjiga tiqilib.

-Ha, otda, bolam, otda keldim, lekin jonivor men minsam, sekin shoshmasdan yuradi, qiblagohingiz minsalar yo'rg'alab ketadi, zap qattiq chopadi.

Ali hazillashdi:

-Biladi-da, egarda bobomi, yigitmi. Ot jonivor aqlli, ziyrak bo'ladi, sizni urintirmaslik uchun ohista yuradi, - deb cholning soqolini siladi Ali.

Chol qih-qih kuldi. Bir onda uning ko'z o'ngidan xotiralar karvon-karvon bo'lib o'tdi. Yoshligidan otni yaxshi ko'rganligi, yigit chog'laridagi qilichbozligi, chavandozligini esladi.

-Yigit temirdek qattiq, guldek nozik bo'ladi. Yoshligim so'ldi, chaqmoqdek bir chaqnadi-yu o'tdi-ketdi, tog' suvidek sharqirab oqib ketdi... Ha, shunday ekan, toychoq'im,- deya qayta-qayta bosh chayqadi chol.- Mana qarabsanki, qaddimiz bukilib cho'kdi... Ot boshqacha yugurar ekan, o'q uzsak, o'zgacha uchar ekan, Alisherim, bu gaplarga tushindingmi? Uqib ol, chirog'im!

Cholning so'zlarini tinglab xayolchan o'ltirgan Ali uni yupatdi:

-Hali ham baquvvatsiz, bobojon, ha, ozgina bukilib yurasiz, lekin soqolingiz juda kelishgan-da, savlatli, oppoq, nuroniy, menga juda yoqadi, yaxshi ko'raman,- deya cholning soqolini jajji barmoqlari bilan silab qo'ydi.

(Davomi bor.)

CHAMAN KULAR HAFJO JOSHLARDA...

Tengdoshingiz - Nafosat RAJABOVA Xorazm viloyatining Shovot tumanidagi 46-umumiy o'rta ta'lim maktabining 7-sinfida tahsil oladi. Yuragida jo'sh o'rayotgan bokira tuyg'ularini she'riy satrlarga muhrlayotgan bu tengdoshingizning ijodiga nazar tashlar ekanman, xuddi tog'u toshni yorib atrofga jilmayib boqayotgan nafis binafshani ko'z o'ngimga keltirdim. Vatanga muhabbat, ona mehri, yoshlik tuyg'ulari bilan limmo-lim to'la bu misralar sizni ham bee'tibor qoldirmaydi degan umiddamiz.



XORAZMDA MEHMON BO'LING

Otam onam yoz fasti,
Sayohatga yo'l oldik.
Go'zal joylarni ko'rib,
Rasa hayratda qoldik.
Bir - biridan go'zal joy,
Ko'p ekan bu dunyoda.
Lekin barisidan ham,
O'zbekiston ziyoda.
Yuragimda Vatanga,
Talbinih hissi jo'shdi.

Yurtga mehr tuyg'usi,
Ummondek to'lib toshdi.
Rohat ekan sayohat,
Men chindan baxtli edim.
Xayrlashganda faqat,
Do'stlarga shunday dedim:
«Mehmon bo'ling ko'rasiz,
Xorazmning to'yini.
Sizni mastun etadi,
Lazgi degan o'yini».

ORZUM QANOTIDA UCHAMAN

Orzum qanotida uchib boraman,
So'ngsiz samolarni quchib boraman.
Ezgulik yo'lida har na bo'lsa ham,
G'amlar kulfatlardan kechib boraman.
Istiqlol mash'ali portlar yo'limda,
Ajdodlarim yozgan kitob go'limda,
Imon e'tiqodim mangu dilimda,
Manzilim gar yiroq yetib boraman.

Nafosat RAJABOVA.

Tengdoshlaring ijodi

Otajon, bugun yana sizni tushimda ko'rdim. Uzoqda kimlar bilandir gaplashib, kulishib turgan ekansiz. Siz tomonga yuguryapmanu oramizdagi masofa hecham kamaymas emish. Bor kuchimni to'plab tezroq yugurishga harakat

Nogoh betob bo'lib qolsam-chi, tepamda mijja qoqmay tong orttiradingiz. «Barcha azoblarni menga berginu bolajonimni darddan xalos qilgin» deya qilgan iltijolaringiz hamon yodimda. Ilk bor yozgan she'rimni o'qib berganimda, uni hali tugatib ulgurmasimdanoq meni bag'ringizga bosib, nima

BUGUN YANA SIZNI QO'MSADIM...

qilyapmanu oyoqlarim o'zimga bo'ysinmash...

Shu payt tarbiyachi opamizning ovozlaridan uyg'onib ketdim. Kun yorishib ketgan. Yakshanba bo'lgani uchun ertalab bemalol uyquga to'yib uxlabmiz. Xonamiz oynalarini ochib yubordim. Tashqaridan musaffo havo bilan birga allaqanday umid va ishonch shabbodasi kirib, mening vujudimga singib ketgandek bo'ldi, go'yo. Kun bo'yi ana shu kayfiyat menga hamroh bo'ldi. Hamma o'z ishi bilan band. Ko'pchilik bolalar ertaga bo'ladigan sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rishyapti, kimdir dars tayyorlayapti. Men esa xayollar og'ushidaman. Bolalik xotiralaram ko'z o'ngimdan bir-bir o'ta boshlaydi. Oyoqyalang changitib chopgan ko'chalarim, pastakkina, ammo eshigidan odam arimaydigan uyimiz. Hovlimizdagi ertapishar olma daraxti... Xayollarimni farroshimiz Qumri xolaning ovozi bo'lib yubordi. «Tuni bilan oyoqlarim og'rib chiqdi, yomg'ir yog'sa kerak» derdi xola kimgadir. Gap ohangidan sog'ligidan nolishdan ko'ra ko'proq, ob-havoni oldindan ayta olish qobiliyatidan maqtanish hissi sezilib turardi. Qumri xolaning qaddiqomatimi, samiyimligimi yo doimo kulib turishimi menga ko'pincha onamni eslatib yuborardi. Siz ham doimo kulib turadingiz, Onajon. Kun bo'yi davlat ishi, uy yumushlari bilan charchasangiz ham injiqliklarimni ko'taradingiz, hecham koyimasdingiz. Meni suyub, erkalashdan o'zingiz ham zavqlanadingiz go'yo...

Meni issiq quchoq'iga mahkam bosib,
Uzun-uzun xayollarga bolgan onam.
«Seni bergan xudoyimdan o'rgilay» deb,
Yaratganga shukronalar aylagan onam...
Siz doimo shukronalar aytib yashadingiz.
Tabassumimdan dunyolarga sig'may quvonadingiz.

uchundir to'yib-to'yib yig'lagandingiz. O'sha tengsiz mehringizni yana bir bor tuygum kelyapti, Oyijon...



Nega hayotdan erta ketdingiz oyijon? Axir mening kamolimni, baxtimni ko'rishni juda-juda istadingiz-ku. Endi ruhingizni shod qilish uchun ham barcha o'yilagan niyatlarimga yetish uchun astoydil intilaman. Bu yil «Yosh qalamkashlar»

tanlovida 2-o'rinni olgan bo'lsam, kelgusi yil albatta 1-o'rinni olishga harakat qilaman.


Kelajakdan orzularim, umidlarim bir jahon,
Go'yo jaji yuragimda joylashgan yeru osmon.
Maqsad sari dovonlardan ildam, dadil o'laman,
Pok ruhingiz menga madad, men baxtlarga yelaman.

Garchi hayot bo'la turib otam mendan xabar olmayotgan bo'lsa ham, men yolg'iz emasman, onajon. Meni bag'riga olgan Mehribonlik uyi, jonkuyar murabbiylarim, ona Vatanim, xalqim bor. Men ular oldidagi farzandlik burchimni sharaf bilan ado etishga so'z beraman.

Bugun mening boshim baland, hur diyor farzandiman,
Islom bobo silar boshim, men uning dilbandiman.
Ona Vatan, bag'ringda men xurram, shodon o'saman,
Buyuk davlat bo'lishingga albat hissa qo'shaman.

Onajon, men albatta baxtli bo'laman. Chunki yurtimizdagi barcha bolajonlar qatori men ham baxt-iqbol huquqiga egaman.

Faranshe ABOZOVA.



Bo'sh o'tirmay, bosh qotir

ARALASH TEST

- Bolalar konvensiyasi necha bobdan iborat?
A) 32 bobdan B) 34 bobdan S) 33 bobdan
- O'zbekiston bu konvensiyaga qachon qo'shilgan?
A) 1991 yilda B) 1993 yilda S) 1992 yilda
- «Bobur» so'zining lug'aviy ma'nosi?
A) Yo'lbars B) Sher S) Bo'ri
- Boburning nechta farzandi bo'lgan?
A) 8 nafar B) 9 nafar S) 7 nafar
- U necha yoshda taxtga o'tirgan?
A) 12 yoshda B) 11 yoshda S) 30 yoshda
- Antarktidada yashovchi hayvonning nomini aniqlang:
A) Oq ayiq B) Yo'lbars S) Maymun

Tuzuvchi:

Matluba RO'ZIMATOVA,
Namangan viloyati, Norin tumani,
O'zbekiston jamoa-xo'jaligi.

Eniga: 1. Andijondagi tuman. 3. Venesuela poytaxti. 6. To'qima buyum. 8. Roman. 11. Hikmatli so'z. 12. Aziz ne'mat. 14. Eshitmaydigan odam. 15. Tikuvchi ish quroli. 16. Ona. 19. Uy hayvoni. 20. Hid.

Bo'yiga: 2. Avtoshahar. 4. O'zbekistondagi daryo. 5. Tropik meva. 7. Mansab. 8. Boburning nabirasi. 9. Dalil, isbot. 10. Muqaddas oy. 13. Gul nomi. 16. Fursat. 17. Tomir. 18. O'rtoq.

Tuzuvchi: Feruza SHODIYEVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani,
Hilol qishlog'i, 7-«A» sinf o'quvchisi.

Har bir qizning eng yaqin

Uch tilda bemaolol so'zlasha
oladi. Ayni kunlarda
kompyuterdan saboq
o l y a p t i.

dugonam yordamga keladi, o'zi
o'qib, ma'nosini erinmay
so'zlab ham beradi. Baribir
o'zing mustaqil o'qiganingga
nima yetsin?! Shuning uchun
ham ingliz tilini o'rganishga
astoydil kirishdim...

*Isming bahor, jisming ham bahor,
Qizg'aldoqning rangi yanog'ing.
Moviylar ko'kdan tiniq, beg'ubor,
Menga boqib turgan qarog'ing.*

*Binafshalar ibosi sening,
Yuzlaringdan barq urib turar.
Zukko, tilmoch dugonam mening,
Sen so'zlasang, bulbul jim turar.*

*Oqilasan, dono qizchasan,
Senga hamma havas-la boqar.
Bulbul kabi mayin, muloyim,
Furti tilda «sayrashing» yoqar.*

*Uch, uchaver, baland farvoz qil,
Omad doim yo'ldoshing bo'lsin.
Ota-onang kamoling ko'rsin,
Umring baxtli kunlarga to'lsin.*

Munisa KOMILOVA,
Toshkentdagi
14 - maktabning
3 - «A» sinf o'quvchisi.

Bizning to'garak



MENING TILMOCH DUGONAM



dugonasi, sirdoshi bo'ladi.
Mening eng yaqin dugonam
Dilbahor. U hademay
umrining o'ninchi bahorini
qarshilaydi. Yoshlarimiz
orasidagi farq olti oygina
bo'lsa-da, u mendan ancha
kattaga o'xshaydi. Fikrlash
doirasi ancha keng, bilimi
ham menikidan kuchli. Ismi
jismiga monand
dugonamning shirinso'zligi,
muloyimligi, mehribonligiga
havas qilaman.

U Toshkentdagi «THE
T A S H K E N T
INTERNATIONAL
SCHOOL» maktabining 4-
sinfida a'lo baholarga o'qiydi.

pianino chalishni o'rganyapti.
Tennis o'ynash uning eng
sevimli mashg'uloti...

Dilbahor juda ko'plab
mamlakatlarda bo'lgan. Har gal
safardan qaytgach u yerlardagi
tengdoshlarimiz hayoti haqida
qiziqarli hikoyalar so'zlab
beradi, yangi tanishgan
dugonalarining suratlarini
ko'rsatadi. Kitobni yaxshi
ko'rganim uchun chet ellardan
menga qiziqarli kitoblar olib
keladi. Ularning rangli
tasvirdagi rasmlarini bir
ko'rsangiz edi. Ertaklari ichiga
kirib ketay deysiz. Chet tilida
bo'lgani uchun o'qishga biroz
qiynalaman-da. Shunda

Dilbahor kelajakda
shifokor bo'lmoqchi. Orzusiga
yetish uchun astoydil harakat
qilayotgan dugonamga omadlar
tilab oqlaman.



Mana bu suratdagi buvijonisi quchoqlab
turgan qizcha menman. Ismim Kamola. Ular
meni juda yaxshi ko'rardilar.

Hozir ancha ulg'ayib qolganman.

Y u n u s o b o d
tumanidagi 47-
b o g ' c h a n i
t a m o m l a d i m .
Kichkinaligimda,
qachon katta
bo'laman, deya
oyimni bezor qilib
yuborardim. «Ko'z
ochib yumguncha»

derdilar oyim. Rost ekan, mana bu yil
shahrimizdagi 293-maktabning 1 - sinfiga qadam
qo'yaman...

Afsuski, bu kunlarni buvijonim ko'r madilar-da...



O'ZBEKISTON

*Dilga Vatan qo'rin bergan,
Mehmonga uy to'rin bergan,
Butun jahon o'rin bergan,
Onajonim O'zbekiston.
Ja'riflari yangrab turar,
Qushlarining sayrog'ida.
Yurtim surati aks etar,
Hilpiragan bayrog'ida.
O'zing sevgan maskanimsan,
Yuragim, jonu tanimsan.
Gulla-yashna tonggi bo'ston,
Jonajonim O'zbekiston.*

Shahboz OCHILOV,
Buxoro viloyati, Peshku tumanidagi
15 - maktabning
5 - «B» sinf o'quvchisi.

TOPISHMOQLAR

*Cheksiz moviy dengizda,
Suzib yurar bir kema.
Dovulda ham g'araq bo'lmas,
Cho'kadi deb g'am yema.*



*Fopib oldim bir kalit,
U oltinga sotilmas.
Usiz sirti sandiqning,
Qulfi sira ochilmas.*

(uyf)

*Barchaga tanish juda,
So'zlamaydi behuda.
Ko'zlaring - la «tillashar»,
Har bir uyga yarashar.*

Muxlisa MURODOVA,
Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi
5 - maktabning 6 - sinf o'quvchisi.

ONA FILIM

*Erkin, ozod bu yurtimda,
So'zlamog' baxt o'z tilimda.
Ona tilim aziz aylab,
Asragayman qalb qo'rimda.*

*Tinglasang a'lo gulshandan,
Har harfi guldir chamandan
Navoiylar zahmatidan,
Saygallanmish sharafshondan.*

*Bizga meros ajdodlardan,
Omon qolgan «Ur», «Ot»lardan.
Mustaqillik qanot bergan,
Boshlanadi u Onadan.*

Durdona AZIMOVA,
Andijon tumanidagi
3- iqtidorli bolalar maktabining
8-sinf o'quvchisi.

MAZZA

*Eh, oshpazga mazza-da,
Sarxil ovqat qozonda.
Ozoz yeb har biridan,
To'yib olar bir onda.*



Jahongir NAMOZOV,
Farg'ona viloyati,
Bag'dod tumanidagi
Bolalar va o'smirlar
uyi qoshidagi
«Yosh qalamkashlar»
to'garagi a'zosi.

**TONG
yulduzi**

O'zbekiston bolalari va
o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Mirakmal MIROLIMOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruja JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
№ 022 raqam bilan
2003 yil 11 dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.
Gazeta
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi
kompyuter bo'limida
terib sahifalandi.
Gazeta haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
Toshkent matbaa
kombinatida chop etildi.

Adadi - 14486
Buyurtma № J 000358

Gazetani
Otabek Eshchanov
sahifaladi.
Navbatchi:
O. Tursunboyeva.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.
Obuna indeksi: 198

Bizning elektron
pochtamiz:
ijod@uzpak.uz

Tel: 144-63-08
144-62-34
Tel./ faks:
(99871) 144-37-24